


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

“FarDU. Ilmiy xabarlar – Научный вестник. ФерГУ – Scientific journal of the Fergana State University” jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal pedagogika, filologiya, tarix, falsafa, siyosat, kimyo, biologiya hamda geografiya fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 2-sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahriri-yashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

**Bosh muharrir
Mas'ul muharrir**

SHERMUHAMMADOV B.SH.
AXMADALIYEV Y.I.

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof.	ZUOGANG PENG (Xitoy)	Janubiy-q'arbiy universitet, b.f.d., prof
ZAYNOBIDDINOV S (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof	PANASYUK M (Rossiya)	Qozon federal universiteti, g.f.d, profr
AZAMOV A (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof	VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)	Ankara Hoji Bayram Veli universiteti fil.
SAGDULLAYEV Sh (O'zbekiston)	O'zRFA t.f.d., prof	SIROJIDDINOV Sh (O'zbekiston)	f.d., prof
TURAYEV A. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, k-b,f.d., prof	ABADI, TOTOK WAHYU (Indonesia)	Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU akademigi, fil.f.d., prof
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)	O'zRFA k.f.d., prof	SCOTT LEVI (AQSH)	Universitas Muhammadiyah Sidoarjo,
ABDULLAEVA Z (Qirg'iziston)	OshDU k.f.n., dots	AZIYA ZHUMABAYEVA (Qozog'iston)	Siyosat va xalqaro huquq.
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, b.f.d., prof	SANIYA NURGALIYEVA (Turkiya)	Ohio State University, PhD, prof
G'ULOMOV S. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, i.f.d, prof	SALTANAT ABILDINA (Qozog'iston)	Abay nomidagi Qozoq milliy pedagogika universiteti
JUMABEKOVA B (Qozog'iston)	b.f.d., prof		Ataturk University
			E. A. Buketov nomidagi Qaragandi davlat universiteti

Tahririyat kengashi

PEDAGOGIKA BO'YICHA

EGAMBERDIYEVA T.	FarDU, p.f.d., prof.	DAVLYATOVA G.	FarDU, p.f.n., dots.
XONKELDIYEV Sh.	FarDU, p.f.d., prof.	BAYDJANOV B.	FarDU, p.f.n., dots.
TOJIBOYEVA H.	O'z Res FA Pedagogika ITI p.f.d. (Dsc)	ABBASOVA N.	FarDU, p.f.f.d., dots.
QURBONOVA B.	FarDU, p.f.d. (DSc), prof	GOFUROVA N.	FarDU, p.f.f.d.
O'RINOVA N.	FarDU, p.f.n., dots.	URAIMOV S.	FarDU, p.f.f.d., dots. (DSc)

Bo'lim boshlog'i: Zokirov I.I., b.f.d.,prof.

Texnik muharrirlar: Sheraliyeva J.
Mirkarimova Sh.

Musahhihlar: Mahmudov F.
O'rinboyev I.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti: Jouranal.fdu.uz

X.S.Umarxo'jayeva	
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ta'lif sohasi talabalarida ingliz tilini o'qitishda tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirish usullari	117
D.A.Solixo'jayeva	
Professional ta'lif muassasalarida tahlil olayotgan o'quvchilarni milliy qadriyatlar vositasida mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlarini tashkil etish metodikasi	120
D.Aminova	
Internetda PR kommunikatsiya xususiyatlari	126
U.G'.Abdullaeva	
Ekologik ta'lif-tarbiya ni amalga oshirishga tayyorlashning zamonaviy usullari	132
D.Y.Tashnazarov	
Sportning yunon-rim kurash turida texnik tayyorgarligini takomillashtirishda tik turgan holatdan yelkalardan oshirib tashlash harakatining samaradorligi (<i>chap tomoniga bajarish asosida</i>)	135
J.G'.Obidov	
Texnika oliv o'quv yurtlarida o'quv materiallarini imitatcion-variativlik asosida o'qitishni takomillashtirish texnologiyalariga ta'sir ko'rsatuvchi didaktik manbalarni yaratish hamda zamonaviy o'quv jihozlaridan ratsional foydalanish	144
A.R.Qodirov	
Bo'lajak pedagoglarning axloqiy-estetik kompetentligini interaktiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi	151
M.A.Esonmirzayeva	
Bo'lajak pedagoglarning metakompetentligini rivojlantirish usullari va takomillashtirish yo'llari	156
N.B.Dusimbetova	
Jurnalistikaning til madaniyati va nutq kompetensiyasini shakllanish tamoyillari	160
G.M.Zoitova, Z.F.Arabjonova	
35-40 yoshdagi ayollarda sog'lomlashtirish mashg'ulotlarida akvafitness vositalaridan kompleks foydalanish	165
D.Y.Tashnazarov	
Yunon-rim kurashchilarini texnik tayyorgarligini takomillashtirishda tik turgan holatdan yelkalardan oshirib tashlash harakatining kinematik asoslarini o'rganish (<i>o'ng tomoniga bajarish asosida</i>)	172
B.Q.Baratov	
Badiiy-tarixiy materiallar vositasida bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy madaniyatini rivojlantirishning ahamiyati	181
N.A.Abdullayeva	
Implementing flipped classroom method in teaching phrasal verbs	185
M.M.Yunusov	
Universitetlarda "Kimyoiy texnologiya" fanining tuzilishi, mazmuni va takomillashtirish modeli ..	189
N.M.Xodjibolayeva	
Pedagogika fanlari xamkorligi asosida talabalarning ekologik kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy masalalari	196



UO'K: 378.014.15

PEDAGOGIKA FANLARI HAMKORLIGI ASOSIDA TALABALARING EKOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY MASALALARI

ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРИРОВАННОГО ОБРАЗОВАНИЯ

ISSUES OF DEVELOPMENT OF ENVIRONMENTAL COMPETENCE OF STUDENTS BASED ON INTEGRATED EDUCATION

Xodjibolayeva Nozima Ma'murovna 

Qo'qon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada pedagogika fanlari hamkorligi asosida talabalarining ekologik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari, fanlararo hamkorlik asosida talabalarining ekologik kompetentligini rivojlantirishning metodik tizimi, fanlararo hamkorlik asosida talabalarining ekologik kompetentligini rivojlantirish metodikasi samaradorligi pedagogika fanlari misolida tahlil qilingan bo'lib, uning bugungi kundagi zarurati atroficha yoritilgan.

Аннотация

В статье анализируются теоретико-методологические основы совершенствования методики формирования экологической компетентности студентов на основе взаимодействия педагогических дисциплин, методическая система формирования экологической компетентности студентов на основе межпредметного взаимодействия, а также эффективность методики формирования экологической компетентности студентов на основе межпредметного взаимодействия на примере педагогических дисциплин, комплексно освещается ее актуальная потребность.

Abstract

This article analyzes the theoretical and methodological foundations of improving the methodology for developing students' ecological competence based on cooperation between pedagogical disciplines, the methodological system for developing students' ecological competence based on interdisciplinary cooperation, and the effectiveness of the methodology for developing students' ecological competence based on interdisciplinary cooperation using the example of pedagogical disciplines, and its current need is comprehensively covered.

Kalit so'zlar: madaniyat, kompetentlilik, ekologiya, ekologik ta'lim-tarbiya, reproduktiv, muqobilashtiruvchi, retrospektiv, ekologik kompetentlik, kompetensiya

Ключевые слова: культура, экология, экологическое образование, репродуктивная, альтернатива, ретроспектива, экологическая компетентность, компетентность.

Key words: culture, ecology, ecological education, reproductive, alternative, retrospective, ecological competence, competence.

KIRISH

Bugungi kunda inson tabiatga ehtiyojkorona munosabatda bo'lish, uni tiklash emas, uning ne'matlardan ko'proq foydalanishga odatlanib qoldi. Iste'molchilik psixologiyasining ustunligi, ekologik huquqbuzarliklar, faqatgina bugunni o'ylab yashash ekologik vaziyatni izdan chiqarmoqda. Bu muammolar ekologik ta'lim va tarbiyaga e'tiborsizlikdan ham kelib chiqmoqda. Aholi ekologik ongingin sayozligi ekologik tarbiya tizimining samarali va ta'sirchan emasligidandir. Hamma ham ekologik muammolarni tushunmaydi, chunki ko'pchilik ekologiya haqidagi bilimni ommaviy axborot vositalari, yoki atrofdan eshitganlardan oladi. Shuning uchun ham ekologik bilim va tarbiya'ni tizimli tashkil qilish, shu bilan ekologik mazmunga ega tarixiy udumlarimizdan foydalanish lozim. Shu bilan birga, tabiatni asrab-avaylashda, unga yuksak axloqiy mezonlarga taya'nib munosabatda bo'lishda, ekologik axloqiy mas'uliyatni shakllantirishda ekologik kompetentlikni rivojlantirish, talabalarda unga doir bilim va ko'nikmalarni, amaliy tajribani oshirish, dunyoqarashni o'stirish talab

PEDAGOGIKA

etiladi. Shuning uchun ekologik madaniyatni oshirish, ekologik ta'limgartarbiya tizimini yanada rivojlantirish vazifasi bevosita ekoetika muammolariga borib taqaladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ekologik ta'limgartasining pedagogik jihatlari, globallashuv davrida ekologik xavfning kelib chiqish sabablari, bartaraf etish yo'llari, talabalarda ekologik kompetentlikning ayrim jihatlarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari R.Mizusava, F.A.Randriamahafaly, A.Schick, A.Barvin, N.L.Zayas, G.Corsi, M.Steneken, J.Stokken, T.V.Anisimova, A.Gorelov, O.YE.Kalinina, G.A.Paputkova, O.YE.Perfilova, R.Seyitjanova, Q.Abdurahimov, I.X.Ayubova, P.Berdanova, N.Bozorova, R.X.Djurayev, N.Inakulova, Sh.Kamolxo'jayev, A.Malikova, M.E.Musayeva, V.Nikitin, N.O'.Nishonova, X.Norbo'tayev, T.Saparov, V.N.Sattorov, X.Tog'ayev, E.O.Turdiqulov, U.Turdiqulov, D.To'xliyev, A.S.To'xtayev, A.Ergashev, A.Nigmatov, L.Abdunazarov, Sh.Yunusovalar tomonidan amalga oshirilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Pedagogika fanlari xamkorligi asosida ekologik kompetentlikni rivojlantirishda integratsion ta'limgartasining tabiatshunoslik va ijtimoiy-gumanitar fanlarni mushtaraklashtirish masalasi muhim ahamiyatga ega. Bunda nisbatan mustaqil ikki jarayon namoyon bo'ladi. Birinchidan, ekologik tarbiyaga majmuaviy-tizimli yondashish imkoniyati ta'limgarting turli sohalarini uyg'unlashtirish, muqobil yo'naliishlarini yagona maqsad asosida bog'lash zaruriyatidan kelib chiqadi. Ikkinchisi yo'naliishda, ekologik tarbiya'ning turli shakllari, darajalari o'rtaqidagi bog'lanishlarning tarixiy, mantiqiy izchilligini saqlab, ularning vositalari, uslublari o'rtaqidagi bog'lanishlarni ham ta'minlash zarur. Boshqacha qilib aytganda, bu yo'naliishlarning mushtarak xarakteri, ularning bir-biriga munosabatida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, ta'limgartasining tabiatni muhofaza qilish manfaatlari bilan bog'lash asosida umumiyoq mushtaraklik vujudga keladiki, aynan uning xususiyatlari ekologik axloqiy mas'uliyatni rivojlantirishning zaruriy shartiga aylanadi.

Olyi ta'limgartimini ekologik ehtiyojlar asosida qayta qurish umuminsoniy qadriyatlarni, shu jumladan, ekologik tarbiya'ni, pedagogik siyosatning, mafkuraning markaziga ko'chirdi. Bu vazifani samarali hal qilish barcha ta'limgartarbiya sohalarini ilmiy metodologik tamoyillar asosida umumlashtirishni taqazo qiladi. Darhaqiqat, turli fan va ijtimoiy ong shakllarining ta'limgartarbiya sohalaridagi uzilishlarini hamda ziddiyatlarini aynan ekologik tarbiya jarayonida bartaraf qilish imkoniyatlari vujudga keladi. Shuning uchun, tabiatni muhofaza qilish sohasidagi ta'limgart, umumiyoq ta'limgart sun'iy, mexanistik tarzda qo'shilgan tadbir bo'lmasdan, har qanday darajadagi ta'limgartarbiya majmuasida malakali xodimlar tayyorlashning uziyi, tarkibiy qismi bo'lishi kerak. Uning mazmuni turli mamlakatlardagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy shart-sharoitlarga, ekologik vaziyatga qarab o'zgarishi mumkin.

Hozirgi zamon oliy pedagogik ta'limgartarbiya vazifalari – turli ijtimoiy ong shakllarining ekologik tafakkur bilan mushtaraklashuvini ta'minlash, har qachongidan ko'ra dolzarb muammoga aylandi. Muayyan ijtimoiy ong shakllarining ekologiyalashuv darjasini va mazmuni, shuningdek,, tabiatni muhofaza qilish amaliy faoliyatining samaradorligi tarixiy taraqqiyotning o'ziga xos mezoniga aylanib bormoqda. Shuning uchun, hozirgi imkoniyatlardan kelib chiqib, talabalar ekologik dunyoqarashini tarbiyalashda turli fan yo'naliishlarining predmetlararo bog'lanishlarini ilmiy-metodologik jihatdan ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Talabalarda ekologik kompetentlikni tarbiyalash usulining rivojlanish darjasini, biosfera muvozanati haqidagi nazariy bilimlarni tabiatni muhofaza qilish vazifalari bilan bog'lanishlarida namoyon bo'ladi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, hatto, tabiat muhofazasiga doir yetarli bilim darajasiga ega bo'lgan talabaning ekologik sifatlarini ham osonlikcha shakllantirib bo'lmaydi. Buning uchun ekologik bilimlar majmuasi jamiyatning ekologik manfaatlari bilan bog'lanib, uning hayotiy ehtiyojlariga aylansagina, u kutilgan natijalarni berishi mumkin. Aytaylik, talaba tabiatni muhofaza qilishning zaruriyatini anglaydi, lekin o'zining kundalik faoliyatida bunga amal qilmasligining, loqaydligining sababi ekologik bilimlarning e'tiqodga, axloqiy normaga aylanmaganligiga borib taqaladi. Talablarda ekologik kompetentlikni rivojlanishida ta'limgartarbiya'ning o'zaro bog'liq bo'lgan ikki vazifasini bir-biridan farqlash maqsadga muvofiq. Birinchisi - tabiatni muhofaza qilishning ma'naviy-tarixiy qadriyatlarini asosida ilmiy ekologik tafakkurni, dunyoqarashni shakllantirish. Ikkinchisi - ekologik mas'uliyatni ijtimoiy hayotga tadbiq qilishning amaliy imkoniyatlarini, uslub hamda vositalarini takomillashtirishdan iborat. Bu ikki

yo'nalishning yaxlit manfaatlar asosida uyg'unlashuvi, pirovard natijada, tabiatga ekologik faol munosabatning vujudga kelishida katta rol o'ynaydi.

Talabalarda ekologik kompetentlikning rivojlanishi o'z-o'zidan, stixiyali, avtomatik tarzda sodir bo'ladigan ijtimoiy hodisa emas, balki turli darajadagi ta'limgar tarbiya mexanizmlarining maqsadga muvofiq faoliyatini taqozo qiladi. Bunda, obyektiv shart-sharoitlar ekologik mas'uliyatning shakllanishiga imkoniyat yaratса, subyektiv omillar esa, ularni vokelikka aylantiradi. Bu muammoning muvaffaqiyatlari hal etilishi iqtisodiy yoki ma'muriy tadbirlarni mavsumchilik bayrog'i ostida o'tkazilishi bilan emas, balki keng xalq ommasining tarixiy ekologik merosidagi vorislik munosabatlarini saqlab, ularni uzluksiz holda, doimiy rivojlantirib boriladigan ma'rifiy, siyosiy vazifadir. Xususan: ma'rifat, siyosat, huquq, fan, axloq, san'at va boshqa shunga o'xshash sohalarni ekologiyalashishidan iborat murakkab jarayondir. Ekologik mas'uliyatni shakllantirishning zaruriy shartlaridan biri, tabiat va inson munosabatlarini ilmiy tushunish asosida, ekologik ongning vujudga kelishdagi obyektiv va subyektiv sabablarni hamda ularni rivojlanish mexanizmlarini aniqlashdan iborat. Global ekologik inqiroz holatida mamlakatlarda ekologik tarbiyaga innovatsion yondashuvlarni olib kirish zarurati ortib boradi. Shunday ekan, O'zbekistonda ham ekologik ta'limgar tarbiya jarayonini innovatsion asosda takomillashtirish va samaradorligini oshirish ustuvor vazifalardan biriga aylanmoqda. Shu bois milliy ekologik ta'limgar tarbiya jarayoning mavjud holatini tadqiq etish va muammolarni bartaraf etishning ilmiy asoslarini aniqlash pedagogik tadqiqotlarning asosi maqsadiga aylanmog'i zarur.

Tabiatni muhofaza qilish sohasidagi ta'limgar tarbiya'si bosqichma-bosqich, uzluksiz tashkil qilishda oila, maktabgacha tarbiya muassasalari, maktab, o'quv yurtlari, mehnat jamoalari tizimiga taya'nish nisbatan keng tarqalgan. Bu sxemaning tarixiy va mantiqiy tamoyillariga asoslanib, ta'limgar tarbiya uzluksizligani ta'minlashga shubha yo'q. Biroq, hozirgi kunning kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb ekologik muammolari hamma bo'g'lnlarda bu ishni ommaviy tarzda kuchaytirishni taqazo qilmoqda. Ayniqsa, tabiatni muhofaza qilish ishlarning samaradorligini oshirish uchun xo'jalik rahbarlarining ongidagi chuqur o'rashib qolgan loqaydlik, "o'zibolarchilik" kayfiyatini bartaraf qilish, birinchi navbatdagi vazifa bo'lib, katta ahamiyatga ega. Zero, bugun rahbarlarning, mutaxassislarning ekologik mas'uliyatini barcha vositalar bilan oshirish ertagayoq, o'z samarasini berishi mumkin. Bu jarayonda ekologik tarbiya tabiatga nisbatan nazariy qarashlarni shakllantirishdan iborat bo'imasdan, "shu bilan birga, e'tiqod shakllanishini va amaliy tayyorgarlikni ham nazarda tutadi". Zero, ekologik ta'limgar tarbiya'ning eng asosiy vazifalaridan biri - kundalik hayotiy faoliyatlarda tabiat va jamiyat o'rtaсидаги ziddiyatlarni nazariy asoslash, amaliy yechimlarini mustaqil topish yo'nalishlaridan iborat.

Talabalarda ekologik amaliy faoliyat ko'nikmalarining shakllanishi va tabiatni muhofaza qilishning hayot mazmuniga aylanib borishi, ijtimoiy-tarixiy jarayonning muhim xususiyatini tashkil qiladi. Bu jarayonda axloqiy, estetik, huquqiy qarashlar e'tiqodga, mas'uliyatga aylanib, amaliy ekologik faoliyatlarda namoyon bo'lsagina, ta'limgar tarbiya vositalarining samaradorligini ko'rsatuvchi mezonga aylanadi. Chunki, ijtimoiy birliklarning ekologik tarbiya vazifasi - tabiat va jamiyat munosabatlarining nisbatan turg'un, ideal shakllarini vujudga keltirishdir. Aksariyat pedagogik-didaktik tajribalarda ekologik tarbiya jo'nlashtirilib, tabiatni asrab-avaylashga qaratilgan. Bunday tarbiya jarayoni o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lsa ham nisbatan quyi bosqich hisoblanadi. Yuqoriroq, ikkinchi bosqich - talabalarda tabiat va inson munosabatlarining obyektiv qonuniyatlarini anglagan holda, tabiat muhofazasi faoliyatini ratsional-konstruktiv tashkil qilish va boshqarishning amaliy ko'nikmalarini shakllantirishni ifodalaydi.

Talabalarda ekologik kompetentlikni rivojlantirishda hissiy-ruhiy holat muhim rol o'ynaydi. Ekologik faoliyatga munosabatni ijobji-salbiy, optimistik-pessimistik va boshqa, bir-biriga qarama-qarshi, yo'nalishlarga ajratish maqsadga muvofiqli. Bunda bevosita ekologik mas'uliyatning ijobji yoki salbiy tomonlari tushunilmasdan, balki, ekologik mas'uliyatga munosabatning ijobji-salbiy, optimistik-pessimistik tomonlari tushunilishi kerak. Chunki, mohiyatiga ko'ra, ekologik mas'uliyat o'z antipodiga ega bo'lmagan ijtimoiy xodisadir. Ularning aniq mezonini ishlab chiqish, metodologik jihatdan, muhim ahamiyatga ega bo'lib, u yoki bu tomonning mutlaqlashuvi ekologik faoliyatning ichki tuzilmasidagi ziddiyatlarni kuchaytirib, uning obyektiv mazmuniga zid kelishi mumkin. Shuning uchun, talabalarda ekologik mas'uliyatning muhim elementi sifatida hissiy-ruhiy holatni, kayfiyatni tarbiyalashni maqsadga muvofiq yo'naltirish zarur.

XULOSA

Yangicha ekologik ta'lim asosida ekologik va axloqiy muhitning o'zaro aloqadorligini ilmiy jihatdan o'rganish, tahlil qilish, muammolarni aniqlab, ularni hal qilish choralarini topish ekologik tahdidlarni jamiyat taraqqiyotiga, odamlarning hayoti va sog'lig'iga salbiy ta'sirlarining oldini olish, aholi ekologik tafakkurini ko'tarishga e'tiborni qaratib, bo'lajak xavflardan aholini, qolaversa, butun insoniyatni ogoh qilishda muhim ahamiyatga egadir. Insonning tabiatga ta'siri esa, uch yo'nalishda: birinchidan, tabiiy resurslardan foydalanish jarayonida, tabiiy obyektlarga ta'sir ko'rsatishda; ikkinchidan, tabiiy resurslarni muhofaza qilib, ularni asrash, saqlash, qayta tiklash, ko'paytirish jarayonida; uchinchidan, tabiat obyektlarining ekologik xavfsizligini ta'minlashda namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдуназаров Л.М. Экологик таълим-тарбияда экологик маданият тушунчаси, мазмуни ва моҳияти. // педагогика ва психологияда инновациялар. Тошкент, 2020. 2-маҳсус сон. – 10556
2. Исломова Г. Талабаларда экологик маданиятни шакллантириш ва ривожлантириш методларини такомиллаштириш (Ўзбекистон тарихи фани мисолида). Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Наманган.: НамДУ. 2022. –Б. 44.
3. Мирзаева Н. Талабаларда экологик компетентликни ривожлантириш тизимини такомиллаштириш методикаси. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Чирчик.: ЧДПУ. 2021. –Б. 47.
4. Назаров Х. Экологик ва аҳлоқий муҳит: ўзаро алоқадорлик ва муаммолар. –Б. 142.
5. Хошимова И. Диалектика глобального, регионального и локального в экологии. Автореф. дисс. на соис. уч. ст. докт. филос. наук. – Ташкент.: 1992. - С. 36.
6. Шукуров Э. Д. Экологизация сознания // Экологическое Движение «БИОМ». – Кыргызыстан. 2016.